TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHLTLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHLTLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdugarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH.....	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ.....	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muhammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeidova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
<i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i>	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
<i>Kurolov Maksud Obitovich</i>	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
<i>Esanova Shohida</i>	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
<i>Хамзина Динара Рашатовна</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
<i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
<i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
<i>Marimova Indira Rasul qizi</i>	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
<i>Murodov Orif Jumayevich</i>	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
<i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
<i>Киличева Ф.Б.</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH	1507
<i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
<i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i>	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
<i>Мансуров Обид Зайнидинович</i>	
РЕКЛАМА XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
<i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Bahodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHLTLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Bahodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	



IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Feruz Mirzoyeva Salimovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Iqtisodiyot fani o'qituvchisi

E-mail: feruzamirzoyeva21@gmail.com

ORCID: 0009-0007-7047-6791

Annotatsiya. Iqtisodiyotning eng asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan iqtisodiy xavfsizlik, uning ta'riflari, omillari, belgilari, o'lchovlari va iqtisodiy subyekt uchun oqibatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda iqtisodiy siyosatlarni, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini tahlil qilish orqali global iqtisodiy tendensiyalarni, tadqiqot usullarini va yakuniy natijalarni ajratib ko'rsatishga qaratilgan xavfsiz iqtisodiy muhitni yaratish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, iqtisodiy xavfsizlik xavfsiz iqtisodiy muhitni shakllantirish asosi hisoblanadi. Ana shulardan kelib chiqib, ushbu maqolada iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va mazmuni haqida to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy subyekt, iqtisodiy siyosat, xavfsizlik tarmoqlari, global iqtisodiy tendensiyalar, xavfsiz iqtisodiy muhit, daromad barqarorligi, iqtisodiy samaradorlik, milliy manfaat, milliy iqtisod, xalqaro raqobat.

Abstract. Economic security, one of the fundamental concepts of economics, is crucial for studying its definitions, factors, characteristics, indicators, and consequences for economic entities. Creating a secure economic environment is essential through analyzing economic policies and social protection systems worldwide, identifying global economic trends, research methods, and final results. Thus, economic security is the foundation for creating a secure economic environment. Therefore, in this article, we will focus on the essence of economic security.

Key words: economy, economic security, economic entity, economic policy, safety nets, global economic trends, secure economic environment, income stability, economic efficiency, national interest, national economy, international competition.

Аннотация. Экономическая безопасность, одно из основополагающих понятий экономики, имеет большое значение для изучения её определений, факторов, характеристик, показателей и последствий для хозяйствующего субъекта. Создание безопасной экономической среды важно посредством анализа экономической политики и систем социальной защиты в мире, выявления глобальных экономических тенденций, методов исследования и конечных результатов. Таким образом, экономическая безопасность является основой создания безопасной экономической среды. Исходя из этого, в данной статье мы сосредоточимся на сущности экономической безопасности.

Ключевые слова: экономика, экономическая безопасность, хозяйствующий субъект, экономическая политика, системы социальной защиты, мировые экономические тенденции, безопасная экономическая среда, стабильность доходов, экономическая эффективность, национальные интересы, национальная экономика, международная конкуренция.

KIRISH

Iqtisodiy xavfsizlik masalasi Respublikamiz iqtisodiyoti uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgan O'zbekistonning siyosiy jihatdan beqaror mintaqada joylashgani ham ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Bu holat iqtisodiy xavfsizlik tarmog'ining xalqimiz hayoti va mamlakat barqaror taraqqiyoti uchun naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, iqtisodiy xavfsizlikni chuqur tadqiq etish bugungi kunda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat barqarorligining asosiy tayanchi hisoblanadi, xavfsizlik choralari esa ushbu barqarorlikni ta'minlash mexanizmini ifodalaydi. Bu esa iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Ya'ni, iqtisodiy jihatdan samarali davlat shunday davlatdirki, u milliy manfaatlarini himoya qila oladi va har qanday sharoitda milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro raqobat sharoitida mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolish, ichki resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish muhim hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Asosiy maqsad — iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va mustahkamlash mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning qamrovi hali yetarli emas. Ayniqsa, real sektorning iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi roli yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Bu esa nafaqat mavzuning dolzarbligini, balki real iqtisodiyotning amaliy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlik va milliy xavfsizlik tushunchalari, ularning turlari va mexanizmlarini bir qator olimlar o'rganib kelmoqdalar.

Xususan, L. Abalkin, N.A. Isaxodjaev, A. Rasulev, D. Djumayev, Q. Abulqosimov, D. Davronov, A. Vohidov, A. Abduvohidov, R. Maxmudov, I. Mavlyanov va U. Hasanovlar iqtisodiy xavfsizlik masalalarini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan olimlardir.

Rossiyalik mashhur olim, akademik L. Abalkin "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining uchta asosiy elementini ajratib ko'rsatgan. Bular:

1. iqtisodiy mustaqillik;
2. milliy iqtisodiyotning barqarorligi;
3. mamlakatning o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi.

L. Abalkinning fikricha, iqtisodiy mustaqillik mutlaq xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'lab qo'yadi. Bunday sharoitda iqtisodiy mustaqillik, avvalo, milliy resurslar ustidan nazoratni saqlab qolish imkoniyatini anglatadi. Ishlab chiqarish hajmini, samaradorlikni va mahsulot sifatini shunday darajaga yetkazish zarurki, u milliy mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlasin hamda jahon savdosi, xalqaro kooperatsiya aloqalari va fan-texnika yutuqlarini almashish jarayonida teng ishtirok etish imkonini bersin.

Milliy iqtisodiyotning barqarorligi esa mulkchilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligi uchun qulay sharoit va kafolatlarni yaratish bilan bog'liqdir. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazuvchi omillarga (masalan, kriminal tuzilmalar faoliyati, daromadlar taqsimotidagi keskin tafovutlar va ijtimoiy adolatsizlik) qarshi kurashish ham bu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

L. Abalkinning ta'kidlashicha, mamlakatning o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi ayniqsa hozirgi davrda nihoyatda muhimdir. Investitsiya va innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratish, ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, xodimlarning bilim, kasb-malaka hamda madaniy saviyasini oshirish kabi omillar milliy iqtisodiyot barqarorligining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, omillari va ta'sir mexanizmlari tahlil qilindi. Maqsad — iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot davomida nazariy-tahliliy, qiyosiy, tizimli va empirik yondashuvlar qo'llanildi.

Nazariy tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlikka oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi, qiyosiy yondashuv yordamida O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Tizimli tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlari — iqtisodiy barqarorlik, milliy boylikni himoya qilish, bank sektorining barqarorligi va tashqi tahdidlarga qarshi siyosat o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Empirik usul asosida amaldagi siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqa bir guruh olimlar o'rganilayotgan tushunchani hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati, milliy manfaatlarni himoya qilish va ularni ro'yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni yaratish qobiliyati va tayyorligi sifatida talqin qiladilar [2].

N.A. Isaxodjaev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilangina cheklanmaydi. U, avvalo, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy assotsiatsiyalar va xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashga tayyorligi va qobiliyatini anglatadi [2].

Iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatiki, unda mamlakatning milliy manfaatlari kafolatli himoyalanaadi, iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy yo'nalishga ega bo'ladi, hamda ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan eng noqulay sharoitlarda ham mudofaa salohiyati yetarli darajada ta'minlanadi.



Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

- xalqaro daraja (global va mintaqaviy miqyosda),
- milliy daraja (mamlakat miqyosida),
- lokal yoki tarmoq darajasi (hududiy yoki sohaviy kesimda),
- xususiy daraja (firma yoki shaxs miqyosida).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik — bu har bir davlatning, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosi sifatida, o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlari ta'minlangan holatdir. Uni ta'minlash jarayonida taraqqiyot modelini zo'rlab joriy etish, iqtisodiy yoki siyosiy bosim o'tkazishdan voz kechish zarur. Har bir xalqning o'z mustaqil yo'lini tanlash huquqini e'tirof etish, mulkchilik shakllari va manfaatlarining xilma-xilligini qonuniy deb tan olish xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning muhim tamoyillaridandir.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik esa mamlakat iqtisodiyoti va hokimiyat institutlarining milliy manfaatlarini kafolatli himoya qila olishi, rivojlanish jarayonining ijtimoiy yo'nalganligi va yetarli iqtisodiy hamda mudofaa salohiyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Korxonalar (firma) iqtisodiy xavfsizligi — bu ma'muriyat va xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy hamda muhandislik-texnik chora-tadbirlar tizimi natijasida shakllanadigan, korxonaning muhim iqtisodiy manfaatlarini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganligini ifodalovchi holatdir [3].

Amerikalik mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun kamida ikki asosiy shart bajarilishi lozim [4]:

1. Mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolish, ya'ni xo'jalik faoliyatiga oid qarorlarni milliy manfaatlardan kelib chiqib mustaqil qabul qilish qobiliyatini ta'minlash;

2. Aholining erishilgan turmush darajasini saqlab qolish va uni izchil yuksaltirish imkoniyatlarini yaratish.

Ko'plab mutaxassislar ta'kidlaganidek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishda unga ta'sir etuvchi barcha omillarni, ayniqsa iqtisodiyotning samaradorligini oshirish mexanizmlarini e'tiborga olish zarur.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning izchil va samarali o'sishini ta'minlaydigan ichki hamda tashqi shart-sharoitlar majmuasini ifodalaydi. U, shuningdek, jamiyat, davlat va shaxs ehtiyojlarini qondira olish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash, turli iqtisodiy tahdidlardan himoya qilish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi shaxsning barqarorligi va ijtimoiy chidamliligini, mamlakatning iqtisodiy farovonligini anglatadi. U asosiy ehtiyojlarni qondirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va rivojlanish imkoniyatlaridan samarali foydalana olishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimi bank faoliyatini baholash, tahdidlarni aniqlash hamda bank sektoridagi iqtisodiy xavfsizlikning joriy holatini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizim mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, milliy boylikni himoya qilish, aholining turmush darajasini yaxshilash va davlatning global iqtisodiyotdagi mustaqilligini mustahkamlash kabi qator vazifalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy barqarorlik — mamlakat iqtisodiyotining ichki va tashqi shoklarga nisbatan chidamliligi.
- Milliy boylikni himoya qilish — davlat aktivlari, tabiiy resurslar va intellektual mulkni muhofaza etish.
- Bank sektorining barqarorligi — banklar faoliyatining izchil ishlashi hamda pul-kredit siyosatining samaradorligi iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi.
- Tashqi tahdidlardan himoya — bojxona, valyuta va savdo siyosati orqali tashqi iqtisodiy shoklarga qarshi barqaror himoya mexanizmlarini yaratish.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmui sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday o'zgarishlar muqarrar ravishda iqtisodiyotning moslashuv mexanizmlariga, manfaatlar tizimiga hamda biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan, iqtisodiy xavfsizlik tizimi mamlakatning iqtisodiy siyosati, strategik maqsadlari va ularni amalga oshirish ustuvor yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liqdir. U iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va global raqobatda milliy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

1. Ish bilan ta'minlanish imkoniyatlari. Mehnat bozorining rivojlanishi va ish o'rinlarining ko'pligi iqtisodiy xavfsizlikning muhim ko'rsatkichidir. Ish o'rinlarining barqarorligi, ijtimoiy imtiyozlar mavjudligi hamda munosib ish haqi aholining iqtisodiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

2. Daromadlarning barqarorligi. Raqobatbardosh va adolatli ish haqi, daromad manbalarining xilma-xilligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bir nechta daromad oqimlariga ega bo'lish iqtisodiy tanazzul davrlarida himoya tarmog'i sifatida xizmat qiladi.



3. Ijtimoiy himoya tizimi. Farovonlik dasturlari, hukumatning yordam mexanizmlari, ishsizlik nafaqalari, oziq-ovqat yordami hamda sog'liqni saqlash dasturlari moliyaviy qiyinchiliklarni kamaytiradi. Pensiya tizimi va jamg'arma rejalariga kirish esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

4. Ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish. Sifatli ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish va uzluksiz malaka oshirish imkoniyati mehnat bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Umr bo'yi ta'lim tizimi insonlarning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi va rivojlanayotgan tarmoqlarda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

5. Sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish. Aholining sog'liqni saqlash tizimiga keng kirish imkoniyatiga ega bo'lishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, tibbiy xarajatlar yukini kamaytiradi va sog'lom ishchi kuchining shakllanishiga zamin yaratadi.

6. Moliyaviy savodxonlik. Byudjet tuzish, tejash va investitsiya qilish ko'nikmalari fuqarolarga ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa shaxsiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartidir.

7. Iqtisodiy siyosat. Davlatning moliyaviy va pul-kredit siyosati iqtisodiyotning o'sish sur'atlariga, inflyatsiya darajasiga va bozorlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Samarali tartibga solish siyosati iste'molchilar huquqlarini himoya qiladi, adolatli raqobatni rivojlantiradi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

8. Ijtimoiy hamjihatlik. Kuchli ijtimoiy aloqalar va jamiyatni qo'llab-quvvatlash tizimlari iqtisodiy qiyinchiliklar davrida yordam ko'rsatish imkonini beradi. Ijtimoiy inklyuziya, tengsizlikni kamaytirish va teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali umumiy iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlanadi.

9. Siyosiy barqarorlik va boshqaruv sifati. Barqaror siyosiy muhit investitsiyalarni jalb etadi, biznes muhitini yaxshilaydi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Samarali boshqaruv tizimi iqtisodiy xavfsizlikning kafolatidir.

10. Global iqtisodiy omillar. Xalqaro savdo siyosati va savdo shartnomalari yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishi yoki xavf omillarini yuzaga keltirishi mumkin. Jahon miqyosidagi iqtisodiy tebranishlar, turg'unlik yoki boshqa mamlakatlardagi o'sish jarayonlari ichki iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy xavfsizlik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u individual, ijtimoiy va institutsional darajalarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash kuchli va barqaror jamiyat qurishning asosi hisoblanadi. Insonlar hamda jamiyat farovonligi uchun barqaror iqtisodiy muhit yaratish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot barqarorligi, ijtimoiy farovonlik va davlat mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. U mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini saqlash, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi himoya mexanizmlarini yaratish hamda iqtisodiy tizimni raqobatbardosh holatda saqlab turish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikning samarali darajasiga erishish uchun davlat siyosati, moliya-kredit tizimi, real sektor va ijtimoiy institutlar o'rtasida muvozanatli hamkorlik zarurdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlari sifatida iqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy boylikni himoya qilish, bank tizimi faoliyatining ishonchligini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi barqaror siyosat yuritish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, sifatli ta'lim tizimini rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash va adolatli boshqaruvni yo'lga qo'yish ham iqtisodiy xavfsizlikning barqaror asosini tashkil etadi. Global iqtisodiy tebranishlar sharoitida milliy manfaatlarni himoya qiluvchi mustahkam iqtisodiy siyosat yuritish, innovatsion va raqamli yechimlardan foydalanish, iqtisodiy xavfsizlik monitoringini takomillashtirish hamda tahdidlarni erta aniqlovchi tizimlarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, milliy iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini takomillashtirish, har bir tarmoq bo'yicha xavfsizlik indikatorlari tizimini shakllantirish, bank sektorining rolini kuchaytirish, kreditlash siyosatini diversifikatsiya qilish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda xalqaro tashkilotlar – IMF, Jahon banki, BMT va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan strategik hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики, 1994, №12, с. 44–48.
2. Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004, 157-bet.
3. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Akademiya, 2006, 111-bet.
4. Богданов И.Я. Экономическая безопасность России. Теория и практика. – М., 2001, с. 21.
5. Abdusamedov N. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent, 2008.



6. Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики, 1994, №12, с. 44–48. (takroriy variant, to'g'rilandi)
7. Экономическая безопасность: учебное пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. / Под ред. В.А. Богомолова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.
8. Экономическая и национальная безопасность. Учебник. / Под ред. д.э.н., проф. Л.П. Гончаренко. – М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2008.
9. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
